

№421, 17-noyabr, 2021 y.

**COVID  
19**

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning  
ishlanmalari bo'yicha

**DAYJEST**

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2021

# Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2021 y. 16-noyabr holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	255 059 156	(+ 532 541 )
Sog'ayganlar soni	-	230 574 686	(+ 434 487)
Vafot etganlar soni	-	5 129 267	(+ 7 148)

## Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	48 161 377	(+ 87 133)
	Hindiston	-	34 456 401	(+ 8 865)
	Braziliya	-	21 965 684	(+ 4 918)
	Buyuk Britaniya	-	9 637 190	(+ 37 243)
	Rossiya	-	9 145 912	(+ 36 818)
	Turkiya	-	8 457 119	(+ 25 101)
	Fransiya	-	7 310 664	(+ 19 778)
	Eron	-	6 051 642	(+ 6 430)
	Argentina	-	5 308 781	(+ 1 622)
	O'zbekiston	-	190 104	(+ 189)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>



# O'zbekistonda COVID-19 qarshi vaksinatsiya bo'yicha hisobot

2021 y. 15-noyabr holatiga ko'ra

Hududlar	Jami emlanganlar soni	Bir kunda emlanganlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 596 982	21 864
Andijon viloyati	3 015 088	15 411
Buxoro viloyati	1 786 134	14 535
Jizzax viloyati	1 175 799	10 620
Qashqadaryo viloyati	2 186 874	22 541
Navoiy viloyati	1 167 051	4 424
Namangan viloyati	3 119 294	19 769
Samarqand viloyati	2 981 712	38 039
Surxondaryo viloyati	2 492 305	10 572
Sirdaryo viloyati	736 191	7 101
Toshkent viloyati	2 765 435	34 903
Farg'ona viloyati	3 238 984	32 890
Xorazm viloyati	1 880 929	18 261
Toshkent sh.	1 869 044	25 426
<b>Jami</b>	<b>30 011 822</b>	<b>276 356</b>

Manba: SSV matbuot kotibi // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi>





# Shveysariyada COVID-19 plastir vaktsinasi sinovdan o'tkaziladi

Shveysariyada antitanalar yuzaga kelmasdan T-hujayra hosil qiluvchi mikroignali plastir ko'rinishidagi COVID-19 vaktsinasining klinik sinovlari o'tkaziladi. Bu haqda Emergex Vaccines kompaniyasining britaniyalik ishlab chiqaruvchi xabar bermoqda.

Tadqiqotda har birida 13 kishidan iborat ikki guruhdagi ko'ngillilar ishtirok etadi, ularga preparatning yuqori va past dozalari yuboriladi. Birinchi bemor 2022-yil yanvar oyining boshida keyingi avlod vaktsina dozasini olishi kutilmoqda, oraliq natijalar iyun oyida e'lon qilinadi [2].

T-hujayralari infeksiyadan so'ng darhol ta'sir qiladi, virusni tanada ko'payishiga, kasallikning rivojlanishiga, shuningdek, virusni boshqa odamlarga yuqishiga yo'l qo'ymaydi. Ishlab chiquvchilarning so'zlariga ko'ra, plastir koronavirusni zararsizlantiruvchi antitanalarni ishlab chiqarishga olib keladigan mavjud vaktsinalardan farqli o'laroq, uzoq muddatli



immunitetga imkon beradi. Gap shundaki, antitanalar soni asta-sekin kamayadi va shu bilan birga, bunday vaktsinalarning samaradorligi zaiflashadi, buning natijasida bemorlarni qayta emlash talab etiladi.

Emergex tijorat direktori Robin Koenning ta'kidlashicha, bu regulyatorlar T-hujayra javobidan foydalangan holda COVID-19 vaktsinasining klinik sinovlarini birinchi marta tasdiqladi. "Virusni bir asteroid sifatida tasavvur qilaylik. U sayyora (hujayra) qulab tushib, virusning signaturasi tezda butun yuzaga tarqaladi. Signaturalar T hujayralari tomonidan qabul qilinadi va begona virus sifatida qabul qiladi, so'ngra T hujayralari yangi tirik viruslar paydo bo'lishidan oldin infeksiyalangan hujayrani o'ldiradi", - deya tushuntirdi Robin [3].

Emergex vaktsinalari mikro ignalar yordamida teri orqali yuborish uchun mo'ljallangan. Vaktsinalar xona haroratida uch oydan ko'proq vaqt davomida saqlanishi mumkin, bu esa butun dunyo bo'ylab tez va samarali tarqatishni osonlashtiradi va bemorlarga qo'llashda qulaylik yaratadi [4].

## Venada bolalarni COVID-19 ga qarshi emlash boshlandi

Vena meri Maykl Lyudvig shaharda besh yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalarni COVID-19 koronavirus infeksiyasiga qarshi ommaviy emlash boshlanganini ma'lum qildi.

“Vena bugundan boshlab 5 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalarni COVID-19 ga qarshi emlashni boshlaydi. Ushbu yosh guruhidagi vaksinalar ilgari faqat litsenziyalangan xususiy amaliyot shifokorlarida va cheklangan darajada mavjud edi”, - deb yozdi Lyudvig o'zining Twitter sahifasida.



Voyaga etmaganlarni emlash uchun BioNTech / Pfizer vaktsinasi qo'llaniladi. Bolalar kattalarga foydalaniladigan dozasi ning 3/1 qismini oladilar [5].

Avstriyaning ORF teleradiokompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, dushanbadan boshlab Avstriya poytaxtida har kuni 5 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan 200 ga yaqin bolalar Pfizer / BioNTech kompaniyasining vaksinalarini olishlari mumkin. Tajriba loyihasi faqat Vena shahri bilan cheklangan va mamlakatning qolgan qismiga joriy etilmagan [6].



# Ispaniya yangi vaksinani ko'ngillilarda sinovdan o'tkazishni boshladi

Ispaniyaning Dori vositalari va tibbiy asboblarni nazorat qilish agentligi (AEMPS) koronavirusga qarshi birinchi ispan vaksinasi "Hipra"ning klinik sinovlarining ikkinchi bosqichini tasdiqladi. Bu haqda dushanba kuni Ispaniya bosh vaziri Pedro Sanches Karlos III salomatlik institutida so'zlagan nutqida ma'lum qildi.



Bosh vazir Pedro Sanches Hipra vaksinasining klinik sinovlarining ikkinchi bosqichiga Ispaniya hukumati tomonidan 15 million yevro miqdorida qo'llab-quvvatlanishini ma'lum qildi [7].



“Bugun ertalab AEMPS Ispaniya farmatsevtika va biotexnologiya kompaniyasi “Hipra” vaksinasining COVID-19 ga qarshi klinik sinovlarining uch bosqichidan ikkinchisiga ruxsat berdi”, dedi bosh vazir. «Menimcha, bu ispan jamiyati va fan uchun ajoyib yangilikdir, hamda bu Ispaniyaning COVID-19 ga qarshi kurashda birinchi o'rinda turishi mumkin”.

Ushbu ikkinchi bosqich mingdan ortiq ko'ngillilar ishtirokidagi 10 ta kasalxona majmuasida bo'lib o'tadi va Ispaniya hukumatidan 15 million yevro miqdorida ko'mak oladi", - deya qo'shimcha qildi Sanches. Avvalroq, joriy yilning avgust oyida AEMPS Ispaniyada COVID-19 ga qarshi vaksinaning klinik sinovlarining




birinchi bosqichini boshlashga ruxsat bergan [8].

# Isroil vaksinasi koronavirusning Delta shtammiga qarshi samarali ekanligi tasdiqlandi



Isroil Biologik tadqiqotlar instituti tomonidan olib borilgan yangi tadqiqot Isroil Brilife vaksinasi Delta variantiga qarshi samarali ekanligini ko'rsatdi. Xususan, IIBR laboratoriyasida o'tkazilgan neytrallashtiruvchi antitanalarning sinovlari natijalariga ko'ra, vakcina antitanalari barcha to'rtta asosiy virus shtammlariga: alfa, beta, gamma va dotalarga qarshi neytrallash qobiliyatini saqlab qoldi [9].

NeuroRx farmatsevtika kompaniyasi bosh direktori Jonatan Javitning so'zlariga ko'ra, laboratoriyada antitanalari mavjud emlangan bemorlarning qon plazmasidan foydalanish imkoniyatiga ega edilar. Laboratoriyada tadqiqotchilar mazkur namunalardagi antitanalarning miqdori Delta variantiga qarshi bir xil miqdordagi ekanligini aniqlashga urinishdi va natijalar ular kutgandek bo'ldi.



Bundan tashqari, tadqiqotchilar bugungi kunga qadar asosan Isroilda qo'llanilgan mRNK vaktsinalarining samaradorligi taxminan to'rt-olti oydan so'ng pasayib, o'ta yuqumli Delta variantiga nisbatan samarasizligini aniqladilar. BriLife vaksinasi butun COVID-19 boshqoq oqsilini ifodalashi bilan boshqoq COVID-19 vaktsinalaridan farq qiladi.

Klinik sinovlarning ikkinchi bosqichi natijalariga ko'ra, tadqiqotda ishtirok etgan 250 nafar ko'ngillidan 5 nafardan ko'pi kasalik kuzatilmagan [10].

1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (15.11.2021)
2. В Швейцарии пройдут испытания вакцинного пластыря от COVID-19 // <https://www.vedomosti.ru/technology/news/2021/11/15/895922-v-shveitsarii-proidut-ispitaniya-vaktsinnogo-plastirya-covid-19> (16.11.2021)
3. Начинаются клинические испытания вакцины-пластыря от коронавируса // <https://www.kommersant.ru/amp/5077802> (16.11.2021)
4. Emergex announces approval to initiate Phase I clinical trial of its next generation COVID-19 vaccine candidate // <https://emergexvaccines.com/emergex-announces-approval-to-initiate-phase-i-clinical-trial-of-its-next-generation-covid-19-vaccine-candidate/> (16.11.2021)
5. В Вене началась вакцинация детей от COVID-19 // <https://novostivl.ru/post/165854/> (16.11.2021)
6. Vienna to Start Vaccinating Young Kids in Pilot Project // <https://www.usnews.com/news/health-news/articles/2021-11-13/vienna-to-start-vaccinating-young-kids-in-pilot-project> (16.11.2021)
7. В Испании одобрили испытания местной вакцины от ковида на 1 тыс. добровольцев // <https://tass.ru/obschestvo/12926875> (16.11.2021)
8. В Испании одобрили испытания местной вакцины от ковида на 1 тыс. добровольцев // <https://news.rambler.ru/weapon/47578854-v-ispanii-odobrili-ispitaniya-mestnoy-vaktsiny-ot-kovida-na-1-tys-dobrovoltsev/> (16.11.2021)
9. Israel's COVID vaccine works against Delta variant - new data // <https://www.jpost.com/health-and-wellness/coronavirus/israels-covid-vaccine-works-against-delta-variant-new-data-684985> (16.11.2021)
10. Израильская вакцина от COVID работает против Дельта штамма // <https://cursorinfo.co.il/israel-news/izrailskaya-vaktsina-ot-covid-rabotaet-protiv-delta-shtamma/> (16.11.2021)



**COVID  
19**

**Coronavirus  
Vaccine**



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2021